

## INFORMATIKA FANINI INNOVATSION TA'LIMDA O'QITISH

Jumaniyazova Nilufar Kamolbayevna

Yusupova Xolida Sobirovna

Xorazm viloyati Urganch shahar 18-son umumiy o'rta ta'lim maktabining  
informatika va axborot texnologiyalari fani o'qituvchilari

### Annotatsiya:

Mazkur maqolada bugungi kunda dolzarb hisoblangan ta'lim tizimidagi modernizatsiyalash, ta'lim sifatini oshirish, ta'limda innovatsion texnologiyalarni keng joriy etishga yo'naltirilgan ko'plab innovatsiyalarning joriylanishi orqali yuz beradigan ijobiy o'zgarishlar haqida ma'lumotlar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** modernizatsiya, innovatsion texnologiya, ta'lim sifati, innovatorlik mahorati, metod, kommunikatsiya

Bugungi kunda ta'lim mazmunini modernizatsiyalash, ta'lim sifatini oshirish, ta'limda innovatsion texnologiyalarni keng joriy etishga yo'naltirilgan ko'plab innovatsiyalar yaratilmoqda va amaliyotga joriy etilmoqda. Mazkur innovatsiyalarning samaradorligi ko'p jihatdan ta'lim muassasasida amalga oshirilayotgan innovatsion faoliyatning to'g'ri tashkil etilganligiga bog'liqdir. Ta'lim jarayonini zamonaviylashtirish, jahon talablariga mos mutaxassislarni tayyorlash, ta'lim berish jarayonida ta'lim oluvchini o'z ortidan ergashtira olish uchun o'qituvchida ham pedagogik ham innovatorlik mahorati yuqori darajada bo'lishi lozim.

Pedagogika sohasidagi eng dolzarb vazifalardan biri har tomonlama kuchli, bilimli, mustaqil fikrlaydigan shaxsni tarbiyalashdir. Bunda darsda va amaliy mashg'ulotlarda mustaqil ishlarning tashkil etilishi muhim ahamiyatga ega. Axborot oqimi va bilimlar doirasi tez sur'atlar bilan kengayib borayotgan hozirgi sharoitda barcha ma'lumotlarni faqat dars mashg'ulotlarida o'quvchilarga yetkazish qiyin, albatta. Shuning uchun ham o'qituvchilar o'quvchilarning mustaqil ishlarini to'g'ri tashkil etishga alohida ahamiyat qaratishi lozim.

Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, kasb-hunar kolleji o'qituvchilari tomonidan mustaqil ishlarni innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish bo'yicha tajribalar hali yetarli emas. Kasb-hunar kollejlari o'qituvchilari mustaqil ishlarga



yetarli darajada e'tibor bermasdan an'anaviy usullar (referat yozish, misol yechish va h.k.) bilan cheklanadilar, xolos. Bu turdagi usullar esa o'quvchini mustaqil fikrlashga o'rgatmaydi, kasbiy ko'nikmasini rivojlantirmaydi, mashg'ulotga bo'lgan qiziqishini oshirmaydi.

Haqiqiy innovatsion pedagogik texnologiyalarda o'quv maqsadlari bo'lajak kasbiy faoliyatga qaratilgan bo'ladi. Bunday texnologiyalardan biri "keys-study"dir.

Case-study (inglizcha case - vaziyat, holat, study -o'rganish). Keys-study metodida bayon qilingan va ta'lim oluvchilarni muammoni ifodalash hamda uning maqsadga muvofiq tarzdagi yechimi variantlarini izlashga yo'naltiradigan aniq real yoki sun'iy ravishda yaratilgan vaziyatning muammoli-vaziyatli tahlil etilishiga asoslanadigan o'qitish usulidir.

Keys-study metodi - o'qitish, axborotlar, kommunikatsiya va boshqaruvning qo'yilgan ta'lim maqsadini amalga oshirish va Keys metodida bayon qilingan amaliy muammoli vaziyatni hal qilish jarayonida prognoz qilinadigan o'quv natijalariga kafolatli yetishishni vositali tarzda ta'minlaydigan bir tartibga keltirilgan optimal usullari va vositalari majmuidan iborat bo'lgan o'qitish texnologiyasidir.

Keys-study metodi vaziyatlarni tahlil qilish metodi hisoblanib, uning mohiyati quyidagidan iborat: o'quvchilarga bir tomondan amaliy muammoni aks ettiruvchi, ikkinchi tomondan bu muammoni hal etish jarayonida avvaldan belgilangan aniq bilimlarni egallashga zarurat tug'diradigan qandaydir hayotiy vaziyatning mazmun - mohiyatini tushunish va tegishli xulosalarni chiqarish uchun taqdim etiladi.

Quyida informatika fanini innovatsion ta'lim muxitida, ya'ni Keys metodi asosida o'qitishga doir namuna keltiramiz.

*Keys-study:* "Elektron jadval yordamida ma'lumotlarni qayta ishlash"

*Keys-study maqsadi:* talabalarga hayotda duch kelishi mumkin bo'lgan muammolarni (amaliy masalalarni) elektron jadval yordamida hal qilishni o'rgatish. Masalaning yechimini mustaqil ravishda aniqlash (zarur hollarda o'qituvchi bilan maslahatlashish).

*Keys-study bajariladigan joy:* Keys "Elektron jadval imkoniyatlari" mavzusidagi amaliy mashg'ulotda qo'llanilib, unda berilgan amaliy topshiriqlar ijodiy guruhda bajariladi.

Keys bilan ishlashda o'quvchilar "Elektron jadval imkoniyatlari" mavzuda ega bo'lgan nazariy materiallarga tayanadi. Keys metodidan ko'zlangan maqsad, o'quvchilarda "Elektron jadval imkoniyatlari" mavzusida shakllantirilgan bilimlarni amaliyotga tadbiiq qilish malaka va ko'nikmalarini shakllantirish hisoblanadi.



Keysda belgilangan muammolarni hal qilishda jamoa bo'lib ishlashda o'quvchilar kichik guruhlarga bo'linadi va keys bilan birgalikda ishlashadi. Guruh a'zolarining vaziyat, asosiy muammo va uni hal etish yo'llari haqidagi turli tasavvurlarni muvofiqlashtirishadi. Yyechimning taklif etilgan variantlarini muhokama qiladilar va baholaydilar, qo'yilgan muammo nuqtai nazaridan ushbu vaziyat uchun eng maqbul variantni tanlashadi. Muammoli vaziyat yyechimiga olib keladigan tanlangan harakatlar yo'lini amalga oshirishning aniq qadamba-qadam loyihasini (dasturini) batafsil ishlab chiqadilar. Taqdimotga tayyorlanadi va namoyish etiladigan materialni rasmiylashtirishadi.

Ushbu keys topshiriqlarini bajarishda dars ishbilarmonlik o'yinidan foydalangan holda tashkil etilishi maqsadga muvofiq. *Keys-study rejasi*

1. Keys topshiriqlari bilan tanishish.
2. Asosiy muammoni aniqlash.
3. Muqobil yechimlarni ko'rib chiqish.
4. Guruhda vazifalarni taqsimlash.
5. Jamoada muhokama qilish va qaror qabul qilish.
6. Yechimlari amalga oshirish.
7. Hisobot berish.

*Keys-studydagi asosiy muammo.* Shaharda avtomobil sotuvchi ikkita raqobatdosh firma faoliyat yuritadi. Firmada quyidagi xodimlar ishlaydi: direktor, hisobchi, savdo ishlari menejeri, bank vakili. Xaridor quyidagi xarakteristikaga ega bo'lgan mashinani sotib olishni istaydi: kuzov turi - sedan, motor turi - benzinli, boshqarish qutisi - mexanik, dvigatel hajmi - 1,6 litr. Xaridorning 20 million so'mi bor. Xaridor shahardagi u yoki bu avtomobil sotuvchi firmalardan birini tanlashi kerak.

*Masalaning qo'yilishi*

1. Xaridorning talabiga mos avtomobilni tanlash
2. Mashina sotib olish uchun buyurtma berish arizasini to'ldirish.
3. Xaridorga kredit taklif qilish va kredit bo'yicha oylik to'lov mablag'larini, shuningdek kredit uchun boshlang'ich to'lovni hisoblab chiqish.
4. Firma hisobchisi tomonidan firmada ishlaydigan xodimlarning oylik maoshlarini hisoblab chiqish.

### **Masalani aniqlashtirish**

1. Xaridorning talabini qanoatlantiruvchi avtomobil modellarini inobatga olish.
2. Xaridorga mashina sotib olish uchun qulay bo'lgan kredit shartnomasini taklif qilish.



### **Keys-studyni jamoaviy tarzda yechish uchun topshiriqlar Firma direktori uchun topshiriqlar**

1. Jamoa a'zolari bilan birgalikda avtosalon tashkil qilish (firma xodimlari va ularning vazifalarini ajratish) va unga nom berish.
2. Baholash varaqasiga ko'ra, xodimlarning ish faoliyatini baholash.
3. Mahalliy tarmoq orqali olingan ma'lumotlarga asoslanib xodimlarning ish faoliyatiga doir hisobotni chop etish.

### **Savdo ishlari menejeri uchun topshiriqlar**

1. MS Excel dasturi yordamida avtomobil sotib olish uchun buyurtma blankasini rasmiylashtirish.
2. Mahalliy tarmoq orqali olingan ma'lumotlarni direktorga hisobot ko'rinishida taqdim etish.

### **Bank vakili uchun topshiriqlar**

Ma'lumki, xaridor mashina krediti uchun 20 million so'm miqdordagi boshlang'ich to'lovni kirita oladi. Mashina sotib olishga etmagan to'lov summasi uchun xaridor bankdan qancha kredit olishi zarur?

MS Excel dasturida hisoblab chiqish:

1. Xaridor har oyda bankka qancha pul to'lashi kerak?
2. Xaridor ortiqcha qancha pul to'laydi?
3. Kredit berish sharti. Kredit muddati - 12 oy. Yillik foiz stavkasi - 24 %, 22 % va 18 % (eng afzalini tanlash zarur).
4. Jadval ko'rinishida bajarilgan ish hisobotini taqdim etish. *Hisobchi uchun topshiriqlar*

1. MS Excel dasturida firma xodimlari oylik maoshini hisoblash.
2. Jadval ko'rinishida bajarilgan ish hisobotini taqdim etish.

### **Keys-study natijalarini rasmiylashtirishga qo'yilgan talab (keys analizi)**

1. Qo'yilgan masalani hal qilish uchun optimal yo'lni tanlash.
2. To'g'ri va aniq hisobot tuzish.
3. Hisoblashda hatolikka yo'l qo'ymaslik.
4. Bajarilgan topshiriqni xatosiz, to'g'ri taqdim etish.

Auditoriyada bajarilgan ish uchun baholash mezonlari va ko'rsatkichlari quyidagicha bo'ladi: 8-10 ball - "a'lo", 6- 8 ball - "yaxshi", 4- 6 ball - "qoniqarli", 0 4 ball - "qoniqarsiz".



<i>Guruhlar ro'yxati</i>	<i>Guruh faolligi</i>	<i>Ma'lumotlarning ko'rgazmali taqdim etilishi</i>	<i>Javoblarning to'liq va aniq berilishi</i>	<i>Jami:</i>
	<i>1 ball</i>	<i>4 ball</i>	<i>5 ball</i>	<i>10 ball</i>

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. С.Худайбердиев. Санъат таълимида ахборот технологиялари. Тошкент2021.
2. Volkov V. B. Ponyatniy samouchitel Excel 2010. - SPb.: Piter, 2010. -256s. ISBN 978-5-49807- 771-0.
3. Shaxrinsa, M., & Husanovna, A. M. (2022). O 'ZBEK MILLIY ETNOLIBOSLARI TARIXIGA BIR NAZAR. Oriental Art and Culture, 3(1), 571-577.
4. To'Ychieva, S. N. M. (2021). ERTAKLAR-BOLALAR TAFAKKURINI RIVOJLANTIRUVCHI VOSITA. Oriental Art and Culture, 2(4), 94-98.
5. No'Monovna, T. Y. S. (2022). AXBOROT-KURUBXONA MARKAZI XODIMLARI FAOLIYATIDA NUTQ MADANIYATI VA NOTIQLIK SAN'ATINING AHAMIYATI. Oriental Art and Culture, 3(1), 589-597.
6. Numonovna, T. S. (2021). The Role of Books in Raising the Morale of Young People. International Journal of Culture and Modernity, 11, 25-31.
7. Boshmonov, M. (2021). MONOPREDIKATIV GAPLARNING LISONIY PARADIGMATIKASI. Oriental Art and Culture, 2(4), 393-400.
8. Тўйчиева, Д. (2022). АМИР ТЕМУРНИНГ КИТОБХОНЛИК ОДОБИ ХУСУСИДА. Oriental Art and Culture, 3(1), 176-185.

